

Sayyora Rahimova Abdukadidovna

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: sayyo_ji@yahoo.com

Urak Pazilovich Lafasov

TDSHU filologiya fanlar nomzodi, dosent U. Lafasov
TDSHU Turkshunoslik oliy maktabi dosenti

Received 4th March 2025, Accepted 11th March 2025, Online 31th March 2025

BUYUK MUNGULLAR DAVRIDAGI ZARGARLIK BUYUMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Buyuk Mungullar davrida yasalgan zargarlik buyumlarning nufuzli xalqaro ro'yxatlardan o'rIN olganligi, o'sha paytda ustalar tosh, po'lat, fil suyagini kesish va ishlatish texnikasini o'ylab topishganligi yoritilgan. Emalchilar kosa, ko'za, uzuk va boshqa buyumlargacha oltin va kumush suvi bilan qoplash usuli bilan ishlov bergenligi, charmkorlar esa zargarlik buyumlari va ularni saqlash uchun mo'ljallangan idishlarga mitti oltin va kumush granulalarni joylab granulyatsiya sohasini shakllantirganligi ta'kidlangan. Hindlarning "kundan" bezagiga qimmatbaho toshlarni o'rnatishlarida ko'ringanligi, Mughal zargarlik buyumlarining barchasi toza oltindan tayyorlanganligi aytilgan. Buyuk Mungullar davrida qimmatbaho toshlarni zargarlik buyumlariga o'rnatish hunari mashhur bo'lganligi sharhlangan. Boburiy hukmdorlar Akbarshoh va shoh Jahongir davrida mamlakatda boylik benihoya ko'p bo'lganligi, bu esa o'sha davrdagi adolatli siyosat natijasi ekanligi qayd etilgan. Yevropalik rassomlar Hindistondan olib kelgan rasmlardan qalbaki nusxalar chizib tirikchilik qilganligi, Hindistonning qadimgi bebafo zeb-u ziynatlaridan nusxalar o'g'irlilik asosida ko'paytirilganligi manbalargan tayangan holda yoritilgan. Mungul xazinasining eng yaxshi marvaridlarga ishlov berishda qadimiylar sharq va ko'chirilgan g'arb uslublarini ko'rish mumkinligi, boburiylar imperiyasi tanazuli boshlangach, salsa jig'alarini hamma boshliqlar taqa boshlaganligi qayd etilgan. Nodirshohning Hindistonni bosib olishi natijasida xazinadagi asosiy boyliklar Eronga olib ketilgan va bir qismi Rossiyaga sovg'a qilinganligi, qolgan boyliklarni yevropalik bosqinchilar talan-taroj qilishganligi izohlangan. Hindistonda ma'danlarga maxsus emallah orqali ishlov beruvchi maktablar yuzaga kelganligi, XVIII asrda hindlar badiiy san'at poydevorini to'liq mungul davridan olib, o'zlarining so'nggi yutuqlarini boyitishga harakat qilganliklari haqidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Buyuk Mungullar, zargarlik buyumlari, qattiq jismni kesish texnikasi, emalchi, charmkor, "kundan" bezagi, adolatli siyosat, xazina.

JEWELRY FROM THE GREAT MONGOL ERA

Abstract: this article highlights the fact that jewelry made during the Great Mongols was included in prestigious international lists, and that at that time craftsmen invented techniques for cutting and using stone, steel, and ivory. It is noted that enamelers treated bowls, jugs, rings, and other objects with gold and silver water coating, and leatherworkers formed the granulation industry by placing tiny gold and silver granules on jewelry and containers intended for their storage. It is noted that the Indians saw the use of precious stones in their "kundan" decoration, and that all Mughal jewelry was made of pure gold. It is commented that the craft of setting precious stones in jewelry was popular during the Great Mongols. It is noted that during the reign of the Babur rulers Akbar Shah and Shah Jahangir, the country was extremely wealthy, which was the result of the fair policy of that time. It is highlighted, based on sources, that European artists made a living by making fake copies of paintings brought from India, that copies of ancient priceless jewels of India were stolen. It is noted that in the processing of the best pearls of the Mongol treasury, ancient Eastern and imported Western styles can be seen, and that after the decline of the

Babur Empire, all chiefs began to wear turbans. It is explained that as a result of Nadir Shah's conquest of India, the main treasures of the treasury were taken to Iran and some were donated to Russia, while the remaining treasures were looted by European invaders. It is stated that schools of special enameling of minerals emerged in India, and that in the 18th century, Indians tried to enrich their latest achievements by taking the foundation of art completely from the Mongol era.

Keywords: Great Mongols, jewelry, solid-material cutting techniques, enameler, leatherworker, "kundan" decoration, fair politics, treasure.

ЮВЕЛИРНЫЕ ИЗДЕЛИЯ ЭПОХИ ВЕЛИКИХ МОНГОЛОВ

Аннотация: в статье подчеркивается тот факт, что ювелирные изделия, изготовленные в период Великого Монгольского ига, включены в престижные международные списки, и что в то время мастера изобрели методы огранки и использования камня, стали и слоновой кости. Отмечено, что эмальеристы покрывали чаши, кувшины, кольца и другие предметы водяным золотом и серебром, а кожевники формировали сферу зерни, помещая мелкие золотые и серебряные гранулы на ювелирные изделия и емкости, предназначенные для их хранения. Говорят, что индийцы вставляли драгоценные камни в свои украшения «кундан», и что все украшения Моголов были сделаны из чистого золота. Отмечается, что искусство оправы драгоценных камней в ювелирные изделия было популярно во времена Великих монголов. Упоминается, что во времена правления правителей Великих Моголов Акбар-шаха и шаха Джахангира страна пользовалась огромным богатством, что было результатом справедливой политики того времени. На основании имеющихся источников установлено, что европейские художники зарабатывали на жизнь изготовлением поддельных копий картин, привезенных из Индии, а также что копии бесценных древних индийских драгоценностей были украдены и воспроизведены. Сообщается, что лучшие жемчужины в монгольской сокровищнице демонстрируют как древний восточный, так и адаптированный западный стиль, и что после упадка империи Бабура все вожди стали носить тюрбаны. Объясняется, что в результате завоевания Индии Надир-шахом основные сокровища казны были вывезены в Иран, а часть передана в дар России, в то время как оставшиеся сокровища были разграблены европейскими захватчиками. Предполагается, что школы специальной эмалировки возникли в Индии, и что в XVIII веке индийцы взяли за основу художественного искусства эпохи Великих Моголов и попытались обогатить его своими новейшими достижениями.

Ключевые слова: Великие монголы, ювелирные изделия, техника резки цельного материала, эмальер, кожевник, декор «кундан», справедливая политика, сокровище.

Kirish (Introduction) Buyuk Mungullar davrida yasalgan zargarlik buyumlari *inley* yoki *zar nishan* ro‘yxatidan faxrli o‘rinni egallagan. Chunki ustalar *tosh, po’lat, fil suyagi* va *turli xil qattiq jismlarni* kesish va ishlatish texnikasini o‘ylab topishgan. **Emalchi** yoki **minakar** (turkiylarda “*sirchi*”, arablarda “*muzahhib*”) *kosa, ko’za, uzuk* va *boshqa buyumlarga* oltin va kumush suvi bilan qoplash usuli bilan ishlov berishgan. Hind ustalari boburiylar davrida emalchilik kasbi bilan shug‘ullanishni boshlganlar. Ushbu guruhdagi boshqa hunarmandlar ayrim buyumning teshilgan joyiga ishlov berish, o‘zgartirish, sim to‘qish, barg yasash va rang berish ishlarini bajarishgan.

Charmkorlar esa zargarlik buyumlari va ularni saqlash uchun mo‘ljallangan idishlarga mitti oltin va kumush granulalarni joylashgan. Bundan shu narsa ayon bo‘ladiki, sharqda g‘arbdan farqli o‘laroq, o‘sha davrlarda, ya’ni o‘n to‘qqizinchi asrgacha granulyatsiya sohasi shakllanib bo‘lgan. Ammo g‘arbning bosqinchilik siyosati oqibatida mazkur soha tanazzulga yuz tutgan va o‘n to‘qqizinchi asrning o‘rtalarida deyarli yo‘qolib ketgan.

Hindlarning ushbu uslubi Abul Fazl tomonidan sanab o‘tgan “*kundan*” bezagiga qimmmatbaho toshlarni o‘rnatishlarida ko‘rinadi. Mughal zargarlik buyumlari kamdan-kam

hollarda lak, asosan tabiiy qatronlar yadrosidan, deyarli barchasi toza oltindan tayyorlangan. Tayyor buyumning tashkiliy qismlari tegishli usta tomonidan tayyorlangan va shakllantirilgan. Agar buyum murakkab qismlardan iborat bo‘lsa, bir-biriga yelimlangan va tosh joylashadigan joyining ichi bo‘sh qoldirilgan. Toshlarni biriktirish uchun maxsus teshik yoki o‘yiq qoldirilgan. O‘yilgan yoki kesilgan qismlar emal bilan qoplangan. Tosh o‘rnatalishi kerak bo‘lganida orqa tomoniga lak qo‘yilgan, so‘ngra toshlar kesib olingan mahsus teshiklar orqali old tomondan tovlanib, yaqqol ko‘rinib turgan. So‘ng yuqori sifatli oltindan ishlangan “*kundan*” bezagi lak bilan qoplangan va qimmatbaho tosh *kundan* bezagiga joylashtirilib qotirilgan. Ushbu bezak “*kundan*”ga yanada ko‘rk va chiroy bag‘ishlagan.

Qimmatbaho toshlarni zargarlik buyumlariga o‘rnatish hunari Uchunchi Buyuk Mungul davrida eng noyob va qadrli soha hisoblangan. So‘ng o‘n to‘qqizinchi asrda madaniy jihatdan orqada qolgan g‘arb zargarlik buyumlariga qimmatbaho tosh qardash ramkalari kirib kelgan.

Keltirilgan ma’lumotlar to‘g‘ri va asosli, ammo o‘sha davr miniyaturlarida aks etgan noyob zargarlik buyumlarining barchasi ham bizgacha yetib kelmagan. Buning sababini bosqinchilarining ochko‘zlik bilan tilla buyumlarni talan-taroj qilganligi hamda noyob buyumlarni eritib yo‘q qilganligi bilan asoslash mumkin. Ular o‘zlarining o‘g‘irligini yashirish maqsadida kamyob buyumlarni yo‘qotib yuborishgan. Bosqin davrida juda ko‘p mohir ustalar urush va muhtojlik tufayli o‘lib ketishgan va zargarlik texnikasi ham ular bilan birga yo‘qolgan.

Ma‘zuga oid adabiyoylarning tahlili (Literature review). Manbalarda keltirilishicha, hukmdor Akbarshohning xotinlarining bari ustaxonalardagi badiiy ijodga katta zavq va qiziqish bilan qarashgan. Bu holdan Abul Fazl shunday xulosaga keladi, hukmdor Akbarshohning ayollarini ulug‘vorlikni aks ettiruvchi har xil turdag'i yangi naqshlarni taklif qilganlar [1]. Hukmdor Akbarshohning o‘g‘li shahzoda Jahongir taxtga chiqish vaqtiga kelib, saroydagi odatlari urfi (modasi) keskin o‘zgarishlarga uchragan. Bu davrdagi odatlardan biri sifatida tilla yoki zargarlik buyumlari shahzodalar vazniga ko‘ra o‘lchanganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Jahongirshohning o‘g‘li shahzoda Xurramning vazniga teng oltin tarozida tortilayotgan surat bunga guvoh bo‘la oladi. Hukmdorning miniyatURA suratlaridagi dabbabali salobati va ulug‘vorligi ser Tomas Roe tomonidan aytilgan va elchi ingliz Jeyms I ning hozirgi paytda bildirgan ta’riflariga mos keladi[2].

Boburiy shoh Akbarning mamlakatida boylik benihoya ko‘p bo‘lgan. Bu esa o‘sha davrdagi adolatli siyosat natijasi edi. Uning o‘g‘li shoh Jahongir paytida ham adolatli siyosat, chet eldan keltirilgan nodir san‘at asarlariga va zargarlik buyumlarga rag‘bat xazinaning yanada boyishiga sabab bo‘lgan (1-rasm).



1-rasm. Jahongir shahzoda Xurramni o‘n oltinch tug‘ilgan kunida tarozida oltin bilan o‘lchab tortmoqda. Mng‘ul qog‘ozidagi shaffof akvarel. 1615-25-yil.

Tadqiqot metodoliyasi (Research Methodology). Buyuk Mungullar davridagi zargarlik buyumlarining bugungi kundagi madaniy ahamiyati ilmiy nazariy jihatdan kengroq yoritilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Londonning Direktorlar sudiga mungul (*mughul*) Hindistonidan kafolatlangan bozor uchun tovarlarni etkazib berayotgan bosqinchilarining “*Ost-Hind kompaniyasining Agra faktorlari*” quyidagilarni ta’kidladi: “*Biz portugal qayiqlari Goaga olib keladigan biron-bir mahsulot haqida eshitmaganimiz. Hindistondan*

esa faqat qimmatbaho toshlar, beباو oltin buyumlar va boshqa zargarlik mahsulotlarni olib kelingan. Goada sudga olib chiqilgan masala Agra va Brampur zargarlik buyumlarining taqdiri haqida edi”[3]. Biroq ushbu xazinaning taqdiri hozirgacha noma'lum bo'lib qolmoqda. O'sha davrga xos noyob zargarlik buyumlari esa eritib, yo'qotib yoborilgan. Hukmdor Jahongirning yaqin do'sti, Surat hokimi Mukarrab Xon Qambay va Surat portlari boshlig'i hukmdorni rozi qilish uchun “qimmatbaho narsalar, zargarlik buyumlar, jahonning turli joylarida yasalgan oltin hamda kumush idishlarni taqdim etgan”[4]. Ushbu sovg'alar shunchalik ko'p ediki, ularni Jahongirshohga taqdim etish uchun ikki yarim oy muddat kerak bo'lgan. Hukmdor Jahongir “hadyalarning ko'plari menga juda yoqdi” deb minnatdor bo'lganligini iltifot bilan ta'kidlagan. Hukmdor saroyiga son-sanoqsiz chet el buyumlari olib kelingan. Bularning orasida katoliklarning diniy nishonlari ham bor edi[5]. Hukmdor Jahongirning esdaliklarida o'z saroyidagi ustalarni quyidagicha maqtagan: “Ular zargarlik va san'atning boshqa turlari ijod qila oladigan tengsiz, mahorati cheksiz hunarmandlardir”[6]. Yana ustalarni “oltin va kumush metallardan zeb-u ziynatlar yashash, ularni turli naqsh bilan bezashda juda mohirdirlar” deb ta'riflagan. Bu maqtov va ta'riflar shuni ko'rsatadi, saroyidagi hunarmandlar o'z kasbining takrorlanmas ustalari bo'lishgan.

Yevropada Ser Tomas Roylar kabi rassomlar Hindistondan olib kelgan rasmlardan qalbaki nuxxalar chizib sotishgan. Xuddi shu tarzda yevropalik rassomlar sharqning noyob va betakror asarlarining soxta nuxxalarini ko'paytirib tirikchilik qilishgan. Uchunchi Buyuk Mungul imperiyasi davrida yaratilgan qadimgi bebaо zeb-u ziynatlar, suratlar shu tarzda o'g'irlilik asosida yevropalashtirilgan va ularning yangi ijod namunalari ekanligini ta'kidlab butun dunyoga jar solishgan. 1590-yilda ko'chirilgan “Ayni Akbariy” kitobida bosh barmoq halqasining ichki yuzasida aylanuvchi yaproq naqshlari Yevropadagi uyg'onish davri zargarlik buyumlari ta'sirida bo'lganligi haqidagi soxta da'veoni hech uyalmasdan, bemalol aytishgan. Go'yoki undagi mutlaqo yangi shakl manbai aslida Evropadagi Egret[7] oroli shlyapasi andozalaridan olingan emish, Sharqda zargarlik rivojlangan paytda, Yevropada bu soha umuman bo'limgan va ular oliy buyumlarga ishlov berishni umuman tushunishmagan. Sharqda aylana va shlyapaga o'xshash shakllar shunchalik ko'p-ki, ularni toplasa Yevropa (“yevropa” so'zi aslida “g'arb” degan ma'noni bildiradi, qadimi Hindiston hududi bo'lib, Hom ibn Nihga berilganligi eski kitob va xaritalarda bor) ularning tagida yo'q bo'lib ketadi. Hukmdor, uning yaqinlari, oila a'zolari va mansabdorlarning salsa jig'alar, ular mingan otlarga taqiladigan bezaklar turlicha va son-sanoqsiz bo'lgan. Hukmdor Akbarshohdagи sallaning old qismiga pat qo'yishi qadim turkiylar udumi bo'lib, Erondagi ozarbayjon hukmdorlar ham shu rusumni davom ettirishgan. Jahongirshoh esa

kiyinishing o'ziga xos rusumidan foydalangan. Uning davridagi asosiy o'zgarish katta marvarid atrofiga qadalgan go'zal patli bezaklardir (5-rasmga qarang). Uning o'g'li hukmdor Shohjahonda yevropalik zargarlar Sharq zargarligidan o'zlashtirgan, ayrim soxta tarixchilar gollandiyalik zargar Arnold Lullsning naqshlari, deb aytayotgan salsa jigalari (g'arbda hecha qachon jig'a bo'limgan) aks etgan (2-rasm).



2-rasm. Ikkita tasvirlangan zargarlik buyumlari rasmlari albomidagi sahifa. Qalam, ruchka va siyoh, guvash, tana rangi va oltin qog'oz. Arnold Lullsning ustaxonasi. 1610.

Lulls 1603-1606-yillarda ingliz saroylariga og‘irlangan marvaridlarga ishlov berib yasalgan buyumlarni etkazib bergen yevropalik hunarmanddir. Hukmdor Jahongirshoh saroyiga Ser Tomas Roe olib kelgan rasmlarda Jeymsning taqinchoqlarida Lullsning o‘zlashma zargarlik hunari namunalari ko‘zga tashlanadi. O‘sha paytgacha Sharqda zargarlik kasbi kamolat cho‘qqisiga chiqib, san’at darajasiga ko‘tarilib bo‘lgan edi. Shuning uchun Lullsning zargarlik hunari sharq ustalari uchun o‘rtamiyona san’at namunasi hisoblangan. 1618-yilda aks etgan suratda hali shahzoda bo‘lgan Shohjahonning o‘zlashma g‘arb zargarlik naqshlaridan ayrim namunalarini ko‘rish mumkin. Ammo 1628-yilda Shohjahon taxtga o‘tirgandan keyin g‘arbdagi o‘zlashma uslubning ta’siri birmuncha ko‘payganini sezish mumkin.


3-rasm. Mungul (mug‘ul, mughul) imperatori Jahongirning to‘ng‘ich o‘g‘li (1605-1627-yy.) Shahzoda Xurramning ushbu portreti Jahongir unga Shoh Jahon, ya’ni “Dunyo podshohi” unvonini bergenida deyarli chizilgan.

Hukmdor Aurangzebning davriga kelib mumtoz san’at va g‘arb ta’siridagi qorishiq zargarlik namunalari saqlanib qolgan. Mungul (mug‘ul, mughul) xazinasining eng yaxshi marvaridlarga ishlov berish, ular o‘rnatilgan buyumlarni namoyish qilishda asli tub ildizi bir bo‘lgan ikkala (sharq va g‘arb) uslubni ko‘rish mumkin. Francua Bernier Aurangzebning sallasidagi jig‘ani ko‘rib, shunday ta’riflaydi: “*sharq zargarligining beqiyos namunasi, undagi olmoslar quyosh kabi nur sochib turibdi*”[8]. Ushbu izohdan ma’lum bo‘ladiki, qadim Sharq hunarmandlar makoni, ustalari esa chin ma’noda o‘z kasbining egalari ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Hindistonda Uchunchi Buyuk Mungul (mug‘ul, mughul) imperiyasining zaiflashishi oqibatida mamlakatda o‘zboshimchaliklar avj olgan. Kelgindi hisoblangan hukmdor qavmning obro‘sizlanishi oqibatida yuqori tabaqaga xos bo‘lgan salsa taqinchoqlarini turli viloyat hokimlari ham taqa boshlaganlar. Turli viloyatlarning davlat xazinasiga qo‘shayotgan hissalari kamayib borgan. Buning oqibatida imperiyaning boyliklari kamayishni boshlagan va avvaldan ichida ushbu tuzumdan norozi bo‘lib yurgan turli qabilalar bosh ko‘tarishni boshlaganlar.

Avrangzeb katta muvaffaqiyatga erishib Dekan sultonlarini mag‘lub qilgan bo‘lsa-da, xazinaning boyliklari ancha kamaygan edi. Bu holat esa hukmdor tabaqaning tutqichi bo‘shashganidan dalolat beradi. Buning oqibatida turli qabila zodagonlari ham sallasiga toshli taqinchoqlar taqishni urf qila boshlaganlar. Ularning xatti-harakatlarida bepisandlik, haddidan oshish sezila boshladi. Ularda o‘ziga ishonish holatlari aniq sezila boshladi. Bu vaziyatni shunday qoldirib bo‘lmas edi, shuning uchun hukmdor 1693-yilda shunday farmon bergan: “*Hukmdor tomonidan zargarlik kamari taqdim etilgan amirlar uni yakshanba kunidan tashqari taqmasliklari lozim, ularning ruxsatsiz boshlariga zargarlik buyumlari taqishlari taqiplanadi*”[9]. Mazkur farmonidan so‘ng birmuncha vaqt sal jonlanish va mas’uliyatni his etish sezilib turdi.

Avrangzebning vorisi bo‘lmish Bahodir Alamshoh davrida vaziyat yanada yomonlashdi. Qonunbuzarlarlar ko‘payib, har xil g‘aroyib voqealar avj oldi. Yerli aholining turli mansablarni egallashi oqibatida hukmdor tabaqa yana-da obro‘sizlanib, ularning farmonlari bajarilamasdan o‘sha ko‘rsatmaga zid holatlar yuz bera boshladi. Mamlakatda har jihatdan tartibsizliklar boshlanib, kundan-kunga g‘alayonlar ko‘payib qonunlarni tan olmaslik va ularga bo‘ysunmaslik ildiz otib bordi. O‘sha davr musulmon tarixchisi shunday izohni keltirib o‘tgan: “*Buyuk Amir Temur zamonidan bitta unyon ikki kishiga berilmasligi to‘g‘risida qoida mavjud edi. Ammo*



endilikda bir unvonni ikki yoki undan ortiq kishiga berish rasm bo‘ldi. Ming afsuslar bo‘lsinki, bosh kiyim taqinchoqlari, jig‘a kabi qimmatbaho buyumlarini sovg‘a qilish tartibga solinmadil[10]”. Mazkur sharh ham hukmdor tabaqaning o‘z mavqeini yo‘qotib borayotganini tasdiqlaydi.

Viloyat hukmdorlari, jumladan hokim Navab Aliverdi Xon va uning hamrohlari tasvirlangan Murshidobod miniatyurasida ular o‘zlarini hukmdorlar kabi tutishlari aks etgan. Yerli aholi vakillari ham buyuk mungullarga taqlid qilgan holatlari ko‘zga tashlanadi. Navab Aliverdi Xon nabirasi Siraj ad-Dualani o‘ziga voris etib tayinlagan marosimda salsa taqinchoqlari sovg‘a qilayotgan holatini ko‘rishimiz mumkin (4-rasm).

4-rasm. Bengaliyalik Navob Aliverdi Xon va uning hamrohlari Murshidabad qog‘ozidagi shaffof bo‘lmagan akvarel. 1750-75-yy.



1739-yilda Eron hukmdori Nodirshoh Hindistonga hujum qilib, mamlakat qo‘sishinlarini mag‘lub qiladi va Dehlini bosib oldi. Nodirshoh bosqinida viloyat hokimlaridan hayiqqan qo‘rqoq hukmdor jangsiz taslim bo‘lgan edi. Natijada esa Uchunchi Buyuk Mungul (*mug‘ul, mughul*) imperiyasining amalda yemirilganligini ko‘rsatgan. Davlat xazinasidagi qimmatbaho narsalarning hammasi Erona olib ketilgan. *Mungul* (*mug‘ul, mughul*) hukmdorlarining nomlari yozilgan va kesmagan shaklida o‘yib ishlangan noyob qimmatbaho toshlar ham Eron xazinasi marvaridlari tarkibiga kirdi[11]. Bosqinchilik oqibatida qo‘lga kiritilgan tekin, hisobsiz boylik eroniylarni gangitib qo‘ydi. O‘zlarining ojiz tomonlarini yashirish maqsadida yoqut, olmos va zumraddan ishlangan narsalar, emal bilan qoplangan boshqa buyumlar, zargarlik buyumlari va oltin idishlarning bir qismi 1741-yilda tuturiqsiz va kaltabin hukmdor Nodirshoh tomonidan Rossiya davlatiga sovg‘a qilindi. Hozir o‘sha bebahoy boyliklar Ermitaj muzeysiда[12] saqlanmoqda.

Hindistonning ko‘pgina viloyatlarida Uchunchi buyuk mungullar sulolasiga sodiqlik halilhamon saqlanib qolgan. O‘sha davridagi zargarlik buyumlariga hurmat, o‘sha paytda o‘rmatilgan udum va urf-odatlarni davom ettirish mavjudligi kishini ajablantiradi. Buni o‘sha davrda xos yaratilgan suratlarga bo‘lgan ehtiromdan ham bilish va yana bir bor amin bo‘lish mumkin.

Jahonning barcha mintaqasiga xos noyob zargarlik buyumlarini 1774-yilgi Gentil albomi bilan taqqoslagan paytda mungullar davridagi zargarlik tamadduniga guvoh bo‘lish mumkin. Ushbu zargarlik buyumlarini kuzatgan paytda ayrim mintaqaviy farqlar ham ko‘zga tashlanadi.

Jumladan, ma’danlarga maxsus emallash orqali ishlov beruvchi maktablarining soni mavjud holatdan ancha kam ekanligini ko‘rish mumkin. XVII asr o‘rtalari, ya’ni 1775-yillarga qadar Fayzabodda faoliyat olib borgan Oudh hokimligi Lakhnauga ko‘chib kelgan. Mazkur hokimlik saroyida kumush taqinchoqlarga o‘zgacha joziba, ya’ni jonli shaffof ko‘k va yashil emallash uslubi bilan zeb berilgan. Bu uslub mungullar davridan saqlanib qolgan noyob hunar hisoblanadi. Aslida kumush oltin kabi juda qadrli ma’dan bo‘lmasa-da, Champlevé[13] uslubi, boshqa mintaqalardan keltirilgan va olib kelingan zargarlik buyumlariga nisbatan hindlardagi mumtoz emallash uslubi o‘ta darajada sifatli va qadrli bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz (5-rasm).

***5-rasm. Champleve texnikasi***

Hindistonga keyinchalik Yevropadan kirib kelgan va sifat jihatidan juda past va zargarlik tamaddunidan ancha orqada qolgan uslubni Sharqdagi noyon san'at namunasidan osongina farqlash mumkin. Robert Clivega tegishli *huqqa*[14] 1766-yilda inventerizatsiyaga kiritilgan va uni Oudhlarga tegishli buyumlar orasida ko'rish mumkin.

XIX asrning 1851-yillaridan tortib to hozirgi kunga qadar Viktoriya va Albert muzeylaridagi ko'rgazmalarda namoyish etiladigan buyumlar Buyuk mungullar davrida ko'k va yashil ranglar ko'p qo'llanganini tasdiqlab turadi. Chunki musulmonlarda ko'k va yashil rang o'zgacha qadrlanadi, balki shuning uchun bo'lsa kerak, ushbu ranglar ko'p ishlatilgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, yumshoq, xira va shaffof binafsha, shuningdek biroz qattiq, shaffof bo'lмаган sariq "gummigut"[15] rang ham bot-bot uchraydi. Yana sal hira va shaffof feruza rangi bilan birga uyg'unlashtirilgan ranglar ham qo'shimcha tarzda qo'llanganligiga guvoh bo'lasiz.

6-rasm. Buyuk mungullar davridagi buyumlar

XVIII asrda hindlar aksariyat badiiy san'at asarlaridagi poydevorni to'liq mungul (*mug'ul, mughul*) davridan olishgan va o'zlarining so'nggi yutuqlari bilan boyitishga harakat qilganlar. Ammo ular mungullar davridagi mumtoz zargarlik hunari an'analarini saqlash bo'yicha qat'iy talab saqlanib turgan. Misol uchun, Rajasthon shahrida zargarlik sohasidagi qadimiy mumtoz uslubning buzilib ketishiga jiddiy va qat'iy qarshilik saqlanib turgan. Zargarlik buyumlarida Rajput shakllari hamda naqshlarida mungullar davridan mumtoz uslub aniq ko'zga tashlanib turishi ta'minlangan. Shuning uchun Rajasthonda mumtoz mungul uslubi va hind uslubi alohida ajralib turgan. Mazkur ikki zargarlik uslubidagi o'ziga xos joziba va maftun etuvchi qirralar zargarlik buyumlari qiziquvchilar va ularni xarid qiluvchilarga har doim ma'qul bo'lgan. Shu bois hind zargarlik buyumlarining bozori chaqqon bo'lgan. Rajasthon malikalari mungul (*mug'ul, mughul*) aslzoda yigitlari bilan oila qurishgan. Natijada ikki xalqdagi noyob hunar va o'z kasbining ustasi bo'lish kabi xislatlar ham qondan, ham tarbiya orqali avloddan avlodga o'tib borganligini alohida qayd etish mumkin. Shu asnoda keyingi avlodlar o'z layoqati hamda tinimsiz mehnati sababli kashf qilgan yangicha usullar ham yuzaga kela boshlagan. Buning natijasida ular o'zlarining milliy zargarlik buyumlarini yaratishgan. Yangi avlodga mansub usta zargarlar shakllanib borishgan. Rajputlar esa o'zlari bilmagan holda mungul hukmdorlari xazinasini oltindan yasalgan turli zargarlik

chaqqon bo'lgan. Rajasthon malikalari mungul (*mug'ul, mughul*) aslzoda yigitlari bilan oila qurishgan. Natijada ikki xalqdagi noyob hunar va o'z kasbining ustasi bo'lish kabi xislatlar ham qondan, ham tarbiya orqali avloddan avlodga o'tib borganligini alohida qayd etish mumkin. Shu asnoda keyingi avlodlar o'z layoqati hamda tinimsiz mehnati sababli kashf qilgan yangicha usullar ham yuzaga kela boshlagan. Buning natijasida ular o'zlarining milliy zargarlik buyumlarini yaratishgan. Yangi avlodga mansub usta zargarlar shakllanib borishgan. Rajputlar esa o'zlari bilmagan holda mungul hukmdorlari xazinasini oltindan yasalgan turli zargarlik

buyumlari bilan boyitib turishgan va shunga yarasha mehnat haqi olib, o‘zlarining turmush darajasini yanada yashilab olishgan. Shu bilan birga ular noyob hunarmandchilik namunalari saqlanib qolishgan va keyingi davrlargacha yetib kelishini ta’minlashgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Shunday xulosa qilish mumkinki Hindiston zargarlik san’ati qadimiyligi va qadri balandligi bilan ajralib turadi va alohida nufuzga egadir. Shu bois yuqorida keltirilgan dalillarga suyanib butun jahon ahli Hindistonda taqinchoqlariga qiziqqanligi va juda katta e’tibor berilganligiga shohid bo‘lamiz. Maqola ajoyib tafsilotlar va tasvirlarga boyligi, har bir izohga batafsil tavsiflar berilganligi bilan ajralib turadi. Biz Hindistonning shimolida nima uchun emal qo’llanganligini, ularda oltin qadrlanishi va ahamiyatini, zargarlik buyumlaridagi qimmatbaho toshlarning ahamiyati, o‘rnatalishi va tartibi sababini ham bilib olamiz. Shuningdek zargarlik buyumlarining inson ma’naviyatga ta’siri kabi holatlar bilan ham tanishamiz. Muarrixlar tomonidan Akbarshoh hukumronligi davri, ya’ni 1526-yilda sulolaning hukmdor qavmi, aslzoda xonimlari va hatto joriya hind ayollari taqishi mumkin bo‘lgan zargarlik buyumlarining aniq ro‘yxati keltirilgan. O‘sha davrga oid manbalarda qimmatbaho taqinchoqlar, zeb-u ziynatlarning qadr-qimmati hamda qo’llanilishi Akbarshoh davridan tortib to so‘nggi hukmdor Avrangzeb davriga qadar aniq-tiniq va yaqqol tasvirlab berilgan. Mungul (*mug’ul, mughul*)lar tanazzulidan so‘ng 1739-yilga kelib, Eron hukumdori Nodirshoh tomonidan Hindistonning bir qismi bosib olinadi. Shu bilan mungul (*mug’ul, mughul*) lar xazinasiga tegishli qimmatbaho toshlari va taqinchoqlarning hammasi Eron hukmdori tasarrufiga o‘tib ketgan. Hindlar zargarlik buyumlarini kundalik hayotda, turli tadbir va bayramlarda, festivallarda, shaxsiy hayot uchun muhim sanalgan kunlarda va milliy madaniyatiga tegishli diniy marosimlarda taqishgan. Hindlar taqinchoqlarni nafaqat qizlar va ayollar, balki o‘g‘il bolalar, erkaklar taqishgan, balki ma’bud haykallariga, hatto hayvonlarga ham taqib qo‘yishgan ekan. Sayohatnomalarda 17-asr yevropalik sayyoohlarining mungul (*mughul*)larning saroylariga tashrifi va u yerdagи boyliklarni ko‘rib hayratga tushganligi, sayyoohlarining ko‘rganlari asosida hindlarning zargarlik buyumlarida gullar va qushlar tasviridan foydalanganlari, mazkur tasvirlarning qanday ma’no ifodalashi batafsil yoritib berilgan. Hindlarning tilla taqinchoqlarga bo‘lgan qiziqlishi, ularning diniy e’tiqodlari va ayrim mistik hodisalarini o‘zlaricha tushunishi natijasida shakllangan bo‘lishi mumkin. Ana shu aqidalar asosida asta-sekin hind tamadduni shakllanib borgan va keyinchalik butun Hindiston bo‘ylab yoyilgan. Biroq hind zargarlik hunarmandchilik, ayniqsa mungul (*mug’ul, mughul*)lar davridagi jiddiy ozgarishlar va ushbu hunarmandchilikning sifat va taraqqiyot jihatidan yuqori darajaga kotarilganligi haqida juda kam yozilgan. Chunki ushbu hunarmandchilikning keying beshiklaridan biri Hindiston ekanligi, Yevropa esa bu sohada juda orqaa qolganligi hammaga ham yoqavermaydi. Hindiston yarim orolidagi zargarlik hunarmandchilik va uning turli xil tarixiy hamda uslubiy taraqqiyoti haqida to‘lqinlanib gapirish mumkin. Hind zargarlari tomonidan juda ko‘p yangi usul va texnikalar ijod qilingan. Shu asnoda mazkur hunarmandchilik san’atga aylanib borgan, ko‘plab texnikalar kashf etishgan. Hindiston zargarlik buyumlari dunyodagi eng qadimiyl, nozik did bilan ishlanganligi bois jahonda yuqori o‘rinda turadi. Subkontinentning xalq zargarlik buyumlari esa hayratlanarli darajada nozik va bejirim dizaynlarga juda boy. Hindistonda qimmatbaho toshlarning turi juda ko‘p va rang-barangdir. Hindistondagi ko‘p asrlik hunarmandchilik an’analarida dininiy aqidalarining ta’siri sezilib turadi. Ularda ramziy ma’noga ega holatlar, urf-odatlar va madaniy ildizlarni ko‘rish mumkin. Ulardagi ranglar milliy to‘qimachiligi va liboslarining yorqin ranglarini to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Hind milliy hunarmandchiligidagi juda ajoyib, har xil bezaklar yaratilgan bo‘lib, ularning shakli va naqshlari xalqning kiyinish uslubiga mos keladi. Zargarlik hunarida ijtimoiy va ramziy ma’nolar aks etish tabiiy, chunki zargarlar kundalik hayotdagi o‘zgarishlardan yaxshi xabardor qavm hisoblanadi. Har bir buyum zamonga mos, yangicha uslubni qamrab olib holda tayyorlanishig e’tibor

beriladi. Zargarlik buyumlari inkor etib bo‘lmaydigan, yangicha dizaynga mos bejirim sirt go‘zalligiga ega bo‘lish bilan birga, o‘sha xalqning milliy mentalitini yorqin aks ettirib turishi talab etiladi. Hindlardagi zargarlik buyumlarida turli ma’bdularga sig‘inish yoki nikoh marosimni nishonlash kabi holatlarga e’tibor qaratilgan. Zargarlik hunarmandchiligidagi taqinchoq yoki boshqa buyumlarga “kundan” – “tosh o‘rnatish” uslubi hindlarga xos bolib, ular mazkur uslubni san’at darajasiga ko‘targanlar. Hind zargarchiligidagi qadimgi davrlarda hunarmandlar qo‘llagan turli xil texnikalarni uchratish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibid., 344-bet.
2. Imperatorning tantanali tarozida tortish marosimi yiliga ikki marta bo‘lib o‘tadi. U nazariy jihatdan kambag‘allar orasida taqsimlanishi kerak bo‘lgan oltin-kumushdan tortib don-dungacha bo‘lgan turli xil narsalarga ajratilgan. Imperatorning yaqinlari, o‘g‘illari va nabiralari yiliga bir marta tortilib turar edi.
3. William Foster, The Embassy of Sir Thomas Roe to the Court of the Great Mogul, 1615-1619, Kraus reprint edition, Nendeln, 1967.
4. Alexander Rogers and Henry Beveridge, The Tuzuk-i-Jahangiri or Memories of Jahangir, London, 1909, vol I. 167- bet.
5. Iezuitlar, Iso jamiyati, shuningdek, Azizlar ordeni. Ignatius – 1534 yilda Ignatius Loyola tomonidan tashkil etilgan va 1540 yilda Pol III tomonidan tasdiqlangan Rim-katolik cherkovining erkak ruhiy buyrug‘i. Iezuitlar doimiy ruhoniylardir.
6. Ibid., vol. II, 80-bet.
7. Ingliz tilidan tarjima qilingan. Иль-о-Эгретт. Mavrikiyning janubi-sharqiy qirg‘og‘idagi orol. U qo‘riqxona va tadqiqot stantsiyasi sifatida ishlaydi. Bundan tashqari, sayyoohlар va Mauritaniyaliklars uchun ham mashhur bo‘lgan sayyoqlik maskani hisoblanadi.
8. Ibid., vol. II, 80 bet
9. Stronge, loc. Cit 1986, London. 315 bet
10. Stronge, loc. Cit 1986, London. 315 bet
11. Meene and Tushingham, 1971
12. Ivanov, 1984, passim.
13. Champlevé – bu dekorativ san’atdagi emal texnikasi yoki shu jarayonda yasalgan buyumda hujayralar o‘yilgan, zarb qilingan yoki metall buyumlar yuzasi tarashlangan va shishasimon emal bilan to‘ldirilgan. Keyin parcha emallar birlashguncha kutilagan va sovutilganda buyumning yuzasi silliqlangan.
14. Yoki hooka (xokka) marixuana, tamaki va boshqalarni chekish uchun, tutun tortilib, sovigan suv yoki boshqa suyuqlik idishiga ulangan bir yoki bir nechta uzun egiluvchan poyalardan iborat.
15. Gummigut – Sharqiy Hindistonning gummigut oilasiga mansub daraxtlarning yaralaridan kelib chiqqan, sariq yoki sariq-qizil rangga ega bo‘lgan tibbiyotda va sariq suv yoki yog‘li bo‘yoq va laklar tayyorlashda ishlataladigan gummigut.